

ABU ALI IBN SINONING SHAXS XULQ-ATVORI TO'G'RISIDAGI QARASHLARI

Kurbanova Nodirabonu Fazlidin qizi

NDPI "Pedagogika va psixologiya" kafedrası o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Sharq allomalar asarlarida ilgari surilgan g'oyalari hozirgi kun ta'lim – tarbiyasida muhim hisoblanib, barkamol avlodni tarbiyalashda dasturil-amal bo'lib xizmat qiladi. Shu bois shaxs tarbiyasida allomalarimizning ibratli namunalaridan foydalanish o'rinli hisoblanadi.

Kalit so'zlar: nafsoniy quvvat, tabiiy quvvat, hayotiy quvvat, mijoz.

Sharqning qomusiy olimlari tomonidan qoldirilgan merosda inson xarakteri, uning xulq-atvori, xatti-harakatlari haqidagi qarashlari hozirgi kun uchun dolzarb masala sifatida e'tirof etiladi. Shunga muvofiq, allomalarimiz tomonidan qoldirilgan merosda komil insonini tarbiyalash unga xos sifat va xususiyatlarni tarbiyalash muammosi atroflicha asoslab berilgan. Ibn Sinoning yozishicha, nafsoniy quvvatning manbai miyadir, uning ta'siri shu a'zodan kelib chiqadi¹. Nafsoniy quvvat. Ibn Sino nafsoniy quvvatni turlarga bo'lgan. Ulardan biri idrok qiluvchi quvvat. U tashqi va ichki idrok qiluvchi quvvatlarga, tashqi idrok qiluvchi quvvat his qilish quvvatidan iborat bo'lib, u beshtadir. Bular — ko'rish, eshitish hid sezish, ta'm bilish va tegib sezish quvvatlaridir. Ichki idrok qiluvchi quvvatga Ibn Sino umumiy sezish (xayol) va fikrlash quvvatini kiritgan. Tashqi idrok qiluvchi quvvatlar orqali sezilganlarning hammasi umumiy sezish quvvatiga kelib to'xtaydi. U bu quvvatlarni qabul qilib olib saqlaydi. Shu saqlangan quvvatlarni fikrlash quvvati birlashtiradi. Idrok etish quvvatiga Ibn Sino yana faxm qilish quvvatini ham kiritgan. Olimning yozishicha, faxm qilish quvvati seziladiganlar to'g'risida, ularning sezgi orqali bilinmaydigan ma'nolari haqida hukm yuritadi, xulosa chiqaradi. Harakat qildiruvchi quvvat qo'l-oyoq paylarini tortib ularni harakatga keltiradi. Harakat qildiruvchi quvvatning kuchi mushaklarga asab tomirlari orqali o'tadi. Bu yerda Ibn Sino bosh miya va periferiya asab (nerv) tizimining faoliyatini to'g'ri ko'rsatib bergan. Ammo bu faoliyatning reflektor usulda amalga oshishini bilmay, uni mavhum kuch (quvvat) bilan bog'lagan.

¹ A.Avloniy.« Turkiy guliston yoxud axloq ».T. :O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – 2004.

Bunday tushuncha xato edi. Biroq sezish va bilish jarayonlarini asab tizimi bilan bog'lashi o'sha davr uchun muhim yutuq edi. Tabiiy quvvat. Ibn Sino tabiiy quvvatni ham ikki turga bo'lgan. Birinchi turi shaxsni saqlash quvvatidir. Bu quvvatning asosiy ishi oziqlantirishni boshqarish. U inson bolasining o'sish davri tugaganiga qadar uning o'sishiga yordam beradi. Tabiiy quvvatning joylashgan a'zosi jigardir. Tabiiy quvvatning ikkinchi vazifasi navni saqlash. Bunda u ko'payish ishini bajaradi, gavdadagi urug' moddasiga shakl beradi. Navni saqlovchi quvvat moyakda joylashgan.

Ibn Sino tabiiy quvvatni yana ikki guruhga — xizmat qiluvchi va xizmat qildiruvchiga bo'lgan. O'z navbatida, xizmat qiluvchi tabiiy quvvat yana ikki jinsga bo'linadi. Bulardan biri shaxsning hayotini saqlash uchun xizmat qiluvchi quvvat. Bu yana, o'z navbatida, oziqlantiruvchi va o'stiruvchi deb ataluvchi ikki turga bo'linadi. Oziqlantiruvchi quvvat turni saqlash maqsadida oziqlantirishni tartibga soladi. Oziqlantiruvchi quvvat oziq moddalarini oziqlanuvchi a'zoga o'xshash holatga keltirib, tanada sarf bo'lgan moddalarning o'rnini qoplashga xizmat qiladi. O'stiruvchi quvvat tana xajmini tabiiy nisbatda o'stirib, ularning to'la kamolotga yetishiga xizmat qiladi. Oziqlantiruvchi quvvat uch vazifani bajaradi. Birinchisi, organizmda sarf qilingan narsaning o'rnini to'ldiruvchi modda hosil qilish. Ibn Sino bu moddani qon va xilt deydi. Ikkinchisi, hosil qilingan moddani tugal ishlash bilan oziqqa aylantirish va organizmning bo'lagiga moslash. Uchinchisi, hosil qilingan moddani a'zoning qismiga aylantirgandan so'ng unga hamma nisbatda, xatto tarkib va tusda xam tamomila o'xshashlik paydo qilish. Ibn Sino to'ldiruvchi quvvatni ham ikkiga bo'lgan. Biri erkaklarda urug', ayollarda tuxum to'ldiruvchi quvvat. Ikkinchisi, urug'dagi quvvatni ayirib har bir a'zoga xos qilib turlicha o'zgartirishni paydo qiladi. Shakl beruvchi quvvat a'zolarning suratini, shaklini, silliq va g'adir-budurligini belgilaydi. Yana xaydovchi quvvat ham bor. U foydalanib tamomlangan yoki ovqatlanish uchun yaroqli bo'lmagan chiqindilarni xaydaydi. Hayotiy quvvat. Ibn Sinoning ko'rsatishicha, hayotiy quvvatning turar joyi yurakdir. Bu quvvat a'zolari his, harakat va faoliyatni qabul qilishga tay-yorlaydi. Ko'rish va g'azab xarakatlari ham shunga kiradi, ruh ham shu quvvatga mansubdir. Ruhda xam siqilish va ezilish xolatlari mavjud. Ibn Sinoning fikricha, hayotiy quvvat inson hayotida boshlang'ich nuqtadir. Boshlang'ich quvvat ruhda bo'ladi va u ruh xiltlarning eng latif qismidan paydo bo'lganida vujudga keladi. Ibn Sinoning yozishicha, yuqorida keltirilgan to'rt xil quvvatga to'rt kayfiyat (mijoz) xizmat kiladi. Issiqlik hamma quvvatga umumiy xizmatni bajaradi. Sovuqlik ularning ba'zilariga araziy xizmat qiladi. Quruqlik xaydovchi quvvatga yordam beradi. Xo'llik xazm qiluvchi quvvatning ishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. A.Avloniy. «Turkiy guliston yoxud axloq».T. :O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – 2004.
2. Davletshin M.G. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya. T.2002.
3. Ma’naviyat yulduzlari. To‘ldirilgan qayta nashr. T.: - 2004.
4. <https://religions.uz/uz/news/detail?id=309>. И.Валиев,маqolasi.